
Barcha joylarda bo'lgani kabi Qo'shtepa tumanida ham kuchaytirilgan karantin davrida aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda hududlardagi oziq-ovqat savdo do'konlarida narx-navo barqarorligini saqlash, ularning sun'iy o'sishiga yo'l qo'ymaslik doimiy diqqat-e'tiborda bo'lib turibdi.

Tuman hokimi I. Novikov kuni kecha G'ishtmon va Istiqlol mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, mas'ul idora rahbarlari bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari do'konlaridagi narx-navo bilan tanishib, sotuvchilar bilan yaqindan suhbat o'tkazdi.

Karantin davrida tumandagi oziq-ovqat do'konlarida odamlarning birlamchi ehtiyoji uchun zarur bo'ladigan mahsulotlarning yetarli darajada ta'minlanganligi va narx-navoning asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik holatlari o'rganib chiqildi. Jumladan, dorixonalardagi tibbiy niqoblarning yetarli darajada mavjudligi ham o'rganildi.

Karantin davrida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va narxni barqaror ushlab turish tuman hokimligi tomonidan doimiy nazoratga olingan.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-06 14:19:30

